



Bilimni  
baholash  
agentligi

BILIM VA MALAKALARNI BAHOALSH  
AGENTLIGI

*Bilimningga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING  
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

O'ZBEK TILI (DAVLAT TILI)  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

---

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

*Imzo*

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;

– ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

– moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1. [2,4 ball]  
Imloviy jihatdan TO'G'RI yozilgan so'zlarni aniqlang.  
A) *televideniye, dramaturg, dissertatsiya*  
B) *me'morchilik, novqiron, taraqqiyot*  
C) *xushmuomila, maxfiy, etnografiya*  
D) *minerologiya, taassurot, chopon*
2. [0,9 ball]  
Qaysi gapda shakldoshlik xususiyatiga ega so'z ajratib ko'rsatilgan?  
A) *Ta'lim to'g'risida chop etilgan maqola ancha vaqt shov-shuvga sabab bo'ldi.*  
B) *O'zbek olimlari o'z ilmiy asarlari bilan jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shdilar.*  
C) *"Mening bu yozganlarim ana shunday jonli til bilan jonli suhbat bo'lishini istayman", – deydi shoir.*  
D) *Bahavo hovli, yorug' va ozoda xonalar o'zgacha muhtashamlik kasb etib turar edi.*
3. [1,7 ball]  
Qaysi gapda noo'rin qo'llangan qo'shimcha mavjud **EMAS**?  
A) *Qadim zamonlardan buyon serquyoshli o'lkalarda oq matodan tikilgan kiyimlar urf bo'lgan.*  
B) *Did bilan kiyinish madaniyatning yana bir asosiy belgilaridan hisoblanadi.*  
C) *Kamtar kishi deb rostgo'y, odobli, sertavozeli, kamgap insonlarni nazarda tutamiz.*  
D) *Tog'larning balandligi har xil, tog' oldilarida keng adirlar, xushmanzarali daralar bor.*
4. [1,7 ball]  
Gapda noo'rin qo'llangan qo'shimcha(lar)ning vazifa turini aniqlang.  
*Hozirgi kunda fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi vosita bo'lib, millat dunyoqarashining shakllantirish, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda alohida o'rin tutib kelinmoqda.*  
A) *faqat so'z yasovchi qo'shimchalar*  
B) *sintaktik va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar*  
C) *sintaktik shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimcha*  
D) *lug'aviy shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimcha*
5. [0,9 ball]  
Parchadagi so'zlarning turkumi haqidagi **XATO** javobni belgilang.  
*Do'lana pishig'ida tog'da bo'lganmisiz? Tog' xalqi do'lana pishishini kutadi. Do'lana tog'ning eng baland cho'qqisida birinchi qor tushgandan so'ng pishadi. Biz ham do'lana terгани tog' yonbag'ridan ko'tarila boshladik.*  
A) *Otning tuzilishiga ko'ra ikki turi ishtirok etgan.*  
B) *Maqsad ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan fe'l ishtirok etgan.*  
C) *Otlashgan sifat o'rin-joy ma'nosini ifodalagan ot o'rnida qo'llangan.*  
D) *Belgi bildirishga xizmat qilgan o'rin-joy oti qatnashgan.*

6.

[2,4 ball]

Qaysi javobda gapdagi grammatik bog'lanishlar **NOTO'G'RI** berilgan?

*Hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida kurash bo'yicha va sportning shu turi ustalari o'rtasidagi musobaqa va chempionatlarning muntazam o'tkazib kelinayotgani O'zbekistonda yashayotgan o'zbeklar, qolaversa, jahonning turli o'lkalarida yashayotgan millatdoshlarimiz uchun faxr va iftixordir.*

- A) mamlakatlarida o'tkazib kelinayotgani, millatdoshlarimiz uchun iftixordir
- B) O'zbekistonda o'tkazib kelinayotgani, ko'plab chempionatlarning
- C) o'tkazib kelinayotgani iftixordir, o'zbeklar uchun faxrdir
- D) hozirda o'tkazib kelinayotgani, kurash bo'yicha chempionatlar

7.

[0,9 ball]

Berilgan parcha haqidagi **XATO** hukmni toping.

- *Shohim, men qulingiz Shiroq bo'laman. Qabila yig'ilishida shu gapni – sizga taslim bo'lishni – aytgan edim, shu ahvolga solishdi.*
- *Ularning qayerdaligini bilasanmi?*
- *Albatta.*
- *Bizni o'sha yerga boshlab bora olasanmi?*
- *Jonim bilan. Sizlarni faqat podachilar biladigan so'qmoqlar bilan olib boraman.*

- A) So'z-gap ishtirok etgan.
- B) Ajratilgan bo'lak ishtirok etgan.
- C) Kirish so'z ishtirok etgan.
- D) To'liqsiz gap ishtirok etgan.

8.

[2,4 ball]

Gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarining **TO'G'RI ketma-ketligini** yozing.

*Bir ma'ruzasida Ayubxon domla San'at nima San'at go'zallik Masalan kamalak bulbul xonishi kabi tabiat hodisalari ham asl san'atdir deya lutf etgan edilar*


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

9.

[0,9 ball]

So'roq belgisi o'rnida har uchala **ma'nodosh so'zlar qatoriga** mos keluvchi so'zni yozing.




Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

10. [2,4 ball]

So'roq belgisi o'rnida har ikkala ma'noni anglatuvchi **shakldosh iborani** yozing.



Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

11. [2,4 ball]

Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqtalarning hech biri o'rnida **qo'llab BO'LMAYDIGAN kelishik qo'shimchasini** yozing.

*Borliq... kuzatish orqali kishi... tasavvur shakllanadi, tasavvur esa bilimlarni hosil qiladi, bilimlar tushuncha... vujudga kelishi... asos bo'ladi.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

12. [2,4 ball]

Gapda **qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra qaysi turi** ishtirok etmagan?

*Yoqub Ahmedov Namangan shahrida tavallud topgan. Uni keng san'at muxlislariga ilk bor tanitgan obrazi "Furqat" filmida Furqat obrazi edi.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

13. [0,9 ball]

Gapdagi ko'p nuqta o'rnida tushirib qoldirilgan **sof ko'makchini** aniqlang.

*Bog'dagi har bir o'simlik – nozik maysalardan katta daraxtlarga ... – barchasi uning uchun juda aziz.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

14. [0,9 ball]

Quyidagi gapda berilgan ko'p nuqta o'rnida qaysi bog'lovchini qo'llash mumkin?

*Siz bu yutug'ingiz bilan nafaqat o'z sha'ningizni, ... butun jamoamiz sharafini ham himoya qila oldingiz.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

15. [1,7 ball]

Parchada fe'lning qaysi vazifaviy shakli ishtirok etmagan?

*Yoshligidan cholg'u asboblari yasashga qiziqqan Xirojiddin Muhiddinov usta Usmon Zufarovning sevimli shogirdi edi. Hunari sirlarini asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazayotgan Xirojiddin kabi hunarmandlar o'zlari yaratgan o'lmas asarlari bilan mangu barhayotdirlar.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

16. [2,4 ball]

Parchada bir bosh bo'lakli gaplarning qaysi turi ishtirok etgan?

*Azizim, unutmang: har so'zning jilosi o'zgacha, ammo "aytganing – kumush, aytmaganing – oltin" deganimizda naqadar haqimiz!*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

17. [0,9 ball]



Berilgan ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylantirilsa, tobe gap hosil bo'lgan sodda gapdagi **qaysi gap bo'lagiga aylanadi?**

*Kimki o'z burchini unutsa, u ko'p xatoga yo'l qo'yadi.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Ijtimoiy tarmoqlar mavzusiga oid rasmlar asosidagi topshiriqlarni bajaring.



18. [0,9 ball]

**1-rasm** asosida to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang.

- A) *Do'stlaridan kelgan xabarni ochib ko'ruvchilar foydalanuvchilar orasidagi eng kam sonli guruhdir.*
- B) *Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining eng ko'p qismi tasodifiy kelgan xabarni ochib o'quvchilardir.*
- C) *Aniq bir mavzuga oid yangilikni qidiruvchilar ijtimoiy tarmoqdagi saytlardan foydalanishmaydi.*
- D) *Biror mavzu yuzasidan ma'lumot izlovchilar doimiy yangilik kuzatuvchilaridan ko'ra kamroqdir.*

19. [0,9 ball]

**1- va 2-rasm** orasidagi mavzu bog'liqligi to'g'ri aks ettirilgan javobni aniqlang.

- A) *Har ikkala rasm ijtimoiy tarmoqlarning axborot almashuv vositasi ekanligini isbotlaydi.*
- B) *Har ikkala rasm ijtimoiy tarmoqlar do'stlashuv uchun xizmat qilishini ko'rsatgan.*
- C) *Har ikkala rasm ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishdagi xatolarni aks ettirgan.*
- D) *Har ikkala rasm telegram ijtimoiy tarmog'i haqidagi ma'lumotlarni aks ettirgan.*

20. [0,9 ball]

**2-rasmda** aks etgan axborot asosida **xaridorning nutqi** haqidagi **NOTO'G'RI** fikrni aniqlang.

- A) *Uslubiy xato kuzatilgan.*
- B) *Imloviy xato kuzatilgan.*
- C) *Mantiqiy xato kuzatilgan.*
- D) *Punktuatsion xato kuzatilgan.*

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

TULKI

Yirtqichlar turkumining eng keng tarqalgan turi tulkilardir. Ular yer yuzining Antarktidadan boshqa barcha hududlarida uchraydi. Shimol tulkisi – pesesdan farqli o'laroq boshqa tulkilar odatda malla tusli bo'ladi. Tulki izlarini chalkashtirib tashlash bilan ovchilar va yirtqichlarni chalg'itishga harakat qiladi. **(1)Tulkilarning dushmanlari ko'p bo'gani singari o'zi ham kichik jonivorlarning xavfli dushmanidir.**

**(2)Tulkilar, asosan, yakka tartibda yashaydi va yolg'iz ov qiladi.** Ular mayda kemiruvchilar, quyonlar, parrandalar va sudraluvchilarni tutib yeydi. Tulkilar uchun uya faqat naslini tug'ib, parvarishlash paytidagina zarur, xolos. **(3)Ya'ni, tulki uyasiz ham yashab yuraveradi.**

Tyanshan tulkisi deb ataladigan tog' tulkisining mo'ynasi tiniq sarg'ish bo'lib, oyog'ida qora naqshi ko'rinib turadi. **(4)Tulkilar yer yuzida juda keng tarqalgan hayvon hisoblanadi.**

Tulkining hid bilish va eshitish organlari juda yaxshi ishlasa-da, ko'zi uzoqni yaxshi ko'rmaydi, suvda yaxshi suzadi, xavf tug'ilganda katta-katta zovurlardan ham bir sakrashda o'tib ketadi.

- |  |   |
|--|---|
| <p><b>21.</b> [2,4 ball]</p> <p>Matnda aks etgan ma'lumotni aniqlang.</p> <p>A) Tulkilar juda mug'ambir ovchi hayvondir.</p> <p>B) Tulki juda tez yuguradigan hayvon hisoblanadi.</p> <p>C) Tulkilarning uyasi bir nechta og'izli bo'ladi.</p> <p>D) Tulkilarning mo'ynasi qimmatbaho bo'ladi.</p> | <p><b>22.</b> [2,4 ball]</p> <p>Matn mazmuniga mos to'g'ri shakllantirilgan javobni aniqlang.</p> <p>A) Tulkilar sovuqqa chidamsiz hayvon hisoblanadi.</p> <p>B) Tulkilarning asosiy ozuqasi quyonlar hisoblanadi.</p> <p>C) Tulkilarning doimiy yashash manzili bo'lmaydi.</p> <p>D) Tulki galasi odamlarga ham hujum qilishi mumkin.</p> <p><b>23.</b> [2,4 ball]</p> <p>Raqamlab ko'rsatilgan qaysi jumla matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan?</p> <p>A) 4 B) 3 C) 2 D) 1</p> |
|--|---|

**She'rni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

ARSLON CHORLAGANDI...  
(Erkin Vohidovga)

Abdulla Oripov

[1] Biz ham yuksaklarga tikkandik ko'zni,  
Bizda ham bor edi matonat, bardosh.

[2] Arslon chorlagandi qoshiga bizni,  
Lekin qumursqalar bo'ldi safardosh.

[3] Jami tiriklikka tanish shu xatar:  
Qumursqa yaralgan yoppa talarga.

[4] Do'stim, alam qilar, arslon bezabar  
Yem bo'lib ketsak shu qumursqalarga.

24. [1,7 ball]

She'r haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) "Safardosh" deya og'ir kunlarda hamjihat, hamfikir bo'lgan hamrohlar nazarda tutilgan.
- B) "Arslon bezabar" jumlasida orqali yurt taqdiriga bee'tibor, loqayd kimsalar nazarda tutilgan.
- C) "Yem bo'lib ketsak" ifodasida "qurbon bo'lib ketmoq" mazmuni ifodalangan.
- D) "Xatar" deya yurt osoyishtaligiga zimdan raxna solayotgan tashqi yovlar nazarda tutilgan.

25. [1,7 ball]

She'rda lirik qahramonga xos qanday xususiyat ko'zga tashlanadi?

- A) saxovatlilik, karamlilik, himmatlilik
- B) fidokorlik, yurtparvarlik, kurashuvchanlik
- C) jafokashlik, dardchillik, zabunlik
- D) tavozeilik, kamsuxanlik, mulozamatlilik

26. [1,7 ball]

She'rda **qumursqa timsoli** orqali qanday insonlar qiyofasi yaratilgan?

- A) mehnatkash insonlar
- B) mazlum xalq
- C) ichi qora insonlar
- D) zo'ravon kimsalar

27. [1,7 ball]

Raqamlab ko'rsatilgan qaysi satrlarda **kelajagidan xavotirda qolgan inson** o'ylari aks etgan?

- A) 3 B) 4 C) 1 D) 2



28-30.

Matn qismlari (28, 29, 30) va ular haqidagi hukmlarni (A-F) to'g'ri moslashtiring.

MATN	HUKMLAR
<p><b>28.</b> [1,7 ball] Shimol musavviri uchun bepoyon muz kengliklari nechog'lik ilhombaxsh bo'lsa, Afrikalik rassom uchun savannalar shu qadar diltortardir.</p> <p><b>29.</b> [1,7 ball] Hozirda milliy tasviriy san'at taraqqiyotiga zamin yaraldi. Rang tasvir, haykaltaroshlik, grafika kabi san'at turlarining bir qancha janrlari paydo bo'ldi.</p> <p><b>30.</b> [1,7 ball] Dunyo tasviriy san'ati xazinasini boy va rang barangdir. Bu mislsiz xazinada o'zbek mo'yqalam ustalarining asarlari alohida o'ringa ega: Leonardo da Vinchi kabi buyuk rassomlar qatorini Kamoliddin Behzodsiz tasavvur qilib bo'lmasligi barchaga birdek ayon.</p>	<p><b>A)</b> Asos va qo'shimchalar imlosiga oid xatolik mavjud.</p> <p><b>B)</b> Chiziqcha bilan yozish imlosiga oid xatolik mavjud.</p> <p><b>C)</b> Qo'shib yozish imlosiga oid xatolik mavjud.</p> <p><b>D)</b> Unlilar imlosiga oid xatolik mavjud.</p> <p><b>E)</b> Undoshlar imlosiga oid xatolik mavjud.</p> <p><b>F)</b> Bosh harflar imlosiga oid xatolik mavjud.</p>